



TIJORAT BANKLARINING INVESTITSION FAOLIYATINI  
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

**Xodjayev Azizbek Shavkatovich**  
"NBU INVEST GROUP" aksiyadorlik jamiyati  
ORCID: 0009-0006-2702-2674  
[infocontact11@gmail.com](mailto:infocontact11@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot tijorat banklarining investitsion faoliyatini takomillashtirish yo'llarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida investitsion portfeli diversifikatsiyalash, innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy etish, xalqaro moliya bozorlariga chiqish, davlat-xususiy sheriklik loyiҳalarida ishtirok etish va risklarni boshqarish tizimlarini rivojlantirish muhim yo'nalishlar sifatida aniqlangan.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, investitsion faoliyat, portfel diversifikatsiyasi, moliyaviy innovatsiyalar, risklarni boshqarish, xalqaro kapital bozorlari, davlat-xususiy sheriklik.

ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ  
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

**Ходжаев Азизбек Шавкатович**  
Акционерное общество «NBU INVEST GROUP»

**Аннотация.** В данной исследовательской работе рассматриваются пути совершенствования инвестиционной деятельности коммерческих банков. В ходе исследования выявлены ключевые направления, такие как диверсификация инвестиционного портфеля, внедрение инновационных финансовых продуктов, выход на международные финансовые рынки, участие в проектах государственно-частного партнерства и развитие систем управления рисками.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, инвестиционная деятельность, диверсификация портфеля, финансовые инновации, управление рисками, международные капитальные рынки, государственно-частное партнерство.

WAYS TO IMPROVE THE INVESTMENT ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS

**Xodjayev Azizbek Shavkatovich**  
"NBU INVEST GROUP" Joint Stock Company

**Abstract.** This study explores ways to improve the investment activities of commercial banks. The research identifies key directions, including portfolio diversification, the introduction of innovative financial products, entry into international financial markets, participation in public-private partnership projects, and the development of risk management systems.

**Keywords:** commercial banks, investment activities, portfolio diversification, financial innovations, risk management, international capital markets, public-private partnership.

### Kirish.

Zamonaviy moliyaviy tizimning jadal rivojlanishi, global iqtisodiyotning integratsiyalashuvi va raqamlı texnologiyalarning bank sektoriga keng joriy etilishi tijorat banklarining faoliyat paradigmaşini tubdan o'zgartirmoqda. An'anaviy moliyaviy institut sifatida faoliyat yuritgan banklar bugungi kunda investitsion faoliyatni kengaytirish, kapital bozorlarida faol ishtirok etish va turli moliyaviy vositalar orqali resurslarni samarali boshqarish kabi strategik vazifalarni bajarishga intilmoqda. Shu nuqtai nazaridan, banklarning investitsion faoliyatini takomillashtirish masalasi nafaqat ularning raqobatbardoshligi, balki umuman moliyaviy tizimning barqarorligi va iqtisodiy o'sish dinamikasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tijorat banklarining investitsion faoliyatni kreditlash, likvidlikni boshqarish va depozit operatsiyalari bilan bir qatorda, real sektorni moliyalashtirish, aktivlarni diversifikatsiya qilish va bozor risklarini minimallashtirishga yo'naltirilgan muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, investitsion faoliyatni samarali yo'lga qo'ygan banklar nafaqat o'zining kapital bazasini mustahkamlash, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim o'r'in tutadi. Masalan, AQSh va Yevropa moliyaviy tizimlarida banklar ko'pincha turli investitsion strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish orqali bozordagi o'z mavqeini mustahkamlab boradi. Shu boisdan, O'zbekiston tijorat banklarining investitsion salohiyatini oshirish va ularning moliyaviy bozorlardagi faolligini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bank tizimining raqamlı transformatsiyasi, xususiy bank sektorining rivojlanishi va kapital bozorlarining liberallashtirilishi kabi omillar tijorat banklarining investitsion strategiyalarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, banklar investitsion portfellarini shakllantirishda hali ham bir qator cheklovlar va tizimli muammolarga duch kelmoqda.

Tijorat banklarining investitsion faoliyatini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar va ilg'or xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, investitsion strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish banklarning kapital yetarligi, risklarni optimallashtirish, texnologik transformatsiya va raqamlı moliyaviy yechimlarni joriy etish bilan chambarchas bog'liqdir. Shuningdek, xalqaro moliyaviy bozorlarga chiqish va xorijiy investorlarni jalb qilish ham banklarning investitsion portfellarini kengaytirishda muhim o'r'in tutadi.

### Adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklarining investitsion faoliyatini takomillashtirish masalalari xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. An'anaviy ravishda, tijorat banklari asosan kreditlash va depozit qabul qilish kabi xizmatlarga e'tibor qaratgan. Biroq, zamonaviy moliyaviy bozorlarning rivojlanishi va diversifikatsiyalashuvi banklarni investitsion faoliyatga faolroq jalb etishga undadi. Coleman (1950) tijorat banklarining kreditlash va investitsiya amaliyotlari sekin o'zgarishini ta'kidlab, ularning muvaffaqiyatli standartlari va amaliyotlari uzoq muddat davomida saqlanib qolishini qayd etadi. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati ham muhim tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Gande (1997) o'z tadqiqotida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar biznesiga kengayishi moliyaviy vositachilik nazariyasi nuqtai nazaridan tahlil qiladi. U tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtiroki ularning daromad diversifikatsiyasi va risklarni boshqarish imkoniyatlarini oshirishini ta'kidlaydi.

Tijorat banklarining investitsion bank xizmatlarini ko'rsatishi ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Santos (1996) tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar biznesiga kirib borishi moliyaviy vositachilik nazariyasi nuqtai nazaridan tahlil qiladi. U tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtiroki ularning daromad diversifikatsiyasi va risklarni boshqarish imkoniyatlarini oshirishini ta'kidlaydi.

Tijorat banklarining investitsion va kredit imkoniyatlarini kengaytirishdagi roli ham muhim tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Alrawahdeh va Zyadat (2021) Iordaniyada tijorat banklarining investitsiya va kredit imkoniyatlarini oshirishdagi rolini o'rganib, ularning iqtisodiy rivojlanishga qo'shgan hissasini tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari tijorat banklarining investitsiya va kredit ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshganligini ko'rsatadi.

Tijorat va investitsion bank faoliyatining ajratilishi masalasi ham ilmiy adabiyotlarda muhokama qilingan. Omar (2016) tijorat banklari va investitsion banklar faoliyatining ajratilishi bo'yicha mavjud adabiyotlarni tanqidiy tahlil qiladi. Tadqiqotda ushbu ajratishning afzalliklari va kamchiliklari ko'rib chiqiladi.

Yuqoridaq adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadi, tijorat banklarining investitsion faoliyatini takomillashtirish bo'yicha turli yondashuvlar mavjud. Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtiroki, investitsion bank xizmatlarini ko'rsatishi va balansdan tashqari faoliyatlarga kengayishi ularning daromad diversifikatsiyasi va risklarni boshqarish imkoniyatlarini oshiradi. Shu bilan birga, tijorat va investitsion bank faoliyatining ajratilishi masalasi ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu borada qo'shimcha tadqiqotlar olib borish zarurati mavjud.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu tadqiqotda tijorat banklarining investitsion faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy yondashuvlarni o'rganish maqsadida kompleks tadqiqot metodlari qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy asoslarini shakllantirish uchun ilmiy adabiyotlar tahlili, xalqaro va milliy reguliyativ hujjatlar tahlili hamda ilg'or xorijiy tajribalar o'rganildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Tijorat banklarining investitsion faoliyati turli omillar asosida shakllanadi va moliyaviy bozorlarning rivojlanish darajasi, tartibga solish choralar, kapital yetarligi va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi bilan bog'liqdir. Quyidagi jadvalda tijorat banklarining investitsion faoliyatining asosiy yo'nalishlari ko'rsatilgan.

**1-jadval**

#### **Tijorat banklarining investitsion faoliyatining asosiy yo'nalishlari**

| <b>Investitsion faoliyat yo'nalishi</b>       | <b>Xususiyatlari</b>                                 | <b>Banklar uchun ahamiyati</b>   | <b>Qo'llash imkoniyatlari</b>  |
|---|--|--|--|
| Qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar          | Xavfsiz va uzoq muddatli daromad manbai              | Risklarni diversifikatsiya qilish, likvidlikni oshirish                            | Davlat obligatsiyalari, korporativ qimmatli qog'ozlar, IPO-larda ishtirok etish                |
| Real sektor investitsiyalari                  | Kichik va o'rta biznes loyihalariga sarmoya kiritish | Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, investitsion portfeli kengaytirish            | Rivojlanayotgan tarmoqlarga sarmoya kiritish, davlat dasturlari bilan integratsiya             |
| Infratuzilma loyihalariga investitsiyalar     | Uzoq muddatli strategik loyihalar                    | Davlat-xususiy sheriklikni rivojlanantirish, barqaror daromad olish                | Transport, energetika, sanoat infratuzilmasiga sarmoya kiritish                                |
| Innovatsion texnologiyalar va fintech sektori | Raqamli bank xizmatlarini rivojlanantirish           | Raqobatbardoshlikni oshirish, moliyaviy texnologiyalar bozorida yetakchilik        | Blokcheyn, sun'iy intellekt, raqamli to'lov tizimlariga investitsiyalar                        |
| Xalqaro investitsiyalar                       | Diversifikatsiya va valyuta risklarini kamaytirish   | Bankning global bozorda ishtirokini kuchaytirish, daromad manbalarini kengaytirish | Xorijiy qimmatli qog'ozlar bozoriga chiqish, xalqaro kredit liniyalari orqali sarmoya kiritish |

*Manba:* muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining investitsion faoliyatni turli yo'nalishlar bo'yicha shakllanadi va har bir yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Banklar investitsion faoliyatni kengaytirishda qimmatli qog'ozlarga sarmoya kiritish, real sektorni moliyalashtirish va innovatsion texnologiyalarga investitsiya qilish kabi muhim strategiyalarga e'tibor qaratishi lozim.

Banklarning investitsion strategiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish investitsion samaradorlikni oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Quyidagi jadvalda asosiy ichki va tashqi omillar ko'rsatilgan.

## 2-jadval

### Tijorat banklarining investitsion faoliyatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar

| Omillar                            | Tavsifi   | Banklar uchun ahamiyati                                   | Bartarafe etish yo'llari  |
|------------------------------------|---|---|---|
| Mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlik | Inflyatsiya darajasi, iqtisodiy o'sish sur'ati            | Banklar aktivlarining real qiymatini saqlash              | Barqarorlikni oshirish uchun markaziy bank siyosatiga moslashish            |
| Moliyaviy tartibga solish siyosati | Kreditlash normalari, kapital yetarliligi ko'rsatkichlari | Banklarning investitsiya hajmini aniqlashga ta'sir qiladi | Xalqaro moliyaviy standartlarga moslashish                                  |
| Raqobat muhitining kuchayishi      | Yangi ishtirokchilarning bozorga kirishi                  | Innovatsion mahsulotlarni yaratish zarurati               | Fintech bilan integratsiya, raqamli xizmatlarni rivojlantirish              |
| Investitsion resurslar yetarliligi | Ichki va tashqi moliyaviy manbalar mavjudligi             | Banklarning investitsion salohiyatini belgilaydi          | Yangi moliyaviy vositalarni jalb etish, obligatsiyalar chiqarish            |
| Risklarni boshqarish tizimi        | Valyuta risklari, kredit risklari                         | Banklarning investitsion barqarorligini ta'minlash        | Risklarni monitoring qilish, diversifikatsiya strategiyasini ishlab chiqish |

**Manba:** muallif tomonidan tayyorlandi.

Tahlildan ko'rilib turibdiki, tijorat banklarining investitsion faoliyatiga iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy tartibga solish siyosati, raqobat muhiti va risklarni boshqarish kabi omillar kuchli ta'sir ko'rsatadi. Banklar bu omillarni e'tiborga olgan holda investitsiya strategiyalarini ishlab chiqishlari lozim.

Investitsion faoliyatning samaradorligini oshirish uchun tijorat banklari turli strategik yondashuvlarni qo'llashi zarur. Quyidagi jadvalda asosiy strategiyalar tahlil qilinadi.

## 3-jadval

### Tijorat banklarining investitsion faoliyatini takomillashtirish strategiyalari

| Strategiyalar  | Tavsifi   | Kutilayotgan natijalar   |
|--|---|--|
| Investitsion portfelni diversifikasiyalash           | Turli sohalarga sarmoya kiritish orqali risklarni kamaytirish             | Barqaror daromad va xavflarni kamaytirish                                    |
| Innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy etish      | Fintech bilan integratsiya, raqamli bank xizmatlarini kengaytirish        | Yangi mijozlarni jalb qilish, xizmatlarni avtomallashtirish                  |
| Xalqaro kapital bozorlariga chiqish                  | Xorijiy obligatsiyalar, IPO va xalqaro moliyaviy hamkorlikni kengaytirish | Moliyaviy resurslarni jalb qilish va global miqyosda bank obro'sini oshirish |
| Davlat-xususiy sheriklik loyihibarida ishtirok etish | Ijtimoiy infratuzilma va strategik loyihalarga sarmoya kiritish           | Barqaror daromad va uzoq muddatli investitsiya manbalarini yaratish          |
| Risklarni boshqarish tizimlarini rivojlantirish      | Ilg'or texnologiyalar orqali investitsion risklarni minimallashtirish     | Investitsion yo'qotishlarni kamaytirish va kapital samaradorligini oshirish  |

**Manba:** muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining investitsion faoliyatini takomillashtirish strategik rejalashtirish va innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Banklar investitsion portfeli diversifikatsiyalash, xalqaro moliya bozorlariga chiqish va raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali investitsion samaradorlikni oshirishlari mumkin.

Tijorat banklarining investitsion faoliyatini takomillashtirish bugungi moliyaviy muhitda eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Investitsion strategiyalarini yanada samarali tashkil etish banklarning raqobatbardoshligini oshirish, barqaror rivojlanishiga erishish va moliyaviy risklarni minimallashtirish imkonini beradi. Tahlil natijalariga asoslanib, quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, investitsion portfeli diversifikatsiyalash orqali risklarni kamaytirish zarur. Tijorat banklari faqat kreditlash yoki davlat obligatsiyalariga sarmoya kiritish bilan cheklanib qolmay, real sektor, infratuzilma loyihalari va fintech startaplar bilan hamkorlik qilish orqali investitsion faoliyatni kengaytirishlari lozim. Bu esa uzoq muddatli daromad olish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Fintech bilan integratsiya qilish, blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish, sun'iy intellekt asosida moliyaviy tahlillarni takomillashtirish va raqamli bank xizmatlarini kengaytirish banklarning investitsion samaradorligini oshiradi. Shuningdek, raqamli obligatsiyalar, tokenizatsiya qilingan aktivlar va boshqa ilg'or moliyaviy instrumentlar banklarning investitsion portfeli boyitadi.

Uchinchidan, xalqaro kapital bozorlariga chiqish va xorijiy investitsiyalarni jalg etish tijorat banklari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik qilish, xorijiy banklar va investitsiya fondlari bilan sheriklik o'rnatish orqali qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalg etish mumkin. Bu esa milliy bank tizimining integratsiyalashuvini oshiradi va banklarning xalqaro bozordagi mavqeini mustahkamlaydi.

To'rtinchidan, davlat-xususiy sheriklik loyihalarida ishtirok etish tijorat banklari uchun istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lishi mumkin. Infratuzilma, energetika va transport sohalarida davlat bilan hamkorlik qilish orqali banklar nafaqat daromad olish, balki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga ham hissa qo'shishi mumkin. Bunday loyihalar uzoq muddatli investitsion xavfsizlikni ta'minlash bilan birga, barqarorlik va ijtimoiy ahamiyat nuqtai nazaridan ham foydali bo'ladi.

Beshinchidan, risklarni boshqarish tizimlarini rivojlantirish ham tijorat banklarining investitsion faoliyatida muhim o'r'in tutadi. Zamonaviy risk menejment tizimlarini joriy etish, moliyaviy bozor o'zgarishlariga tezkor moslashish va stress-testlarni muntazam ravishda o'tkazish orqali banklar investitsion yo'qotishlarning oldini olishlari mumkin. Shu bilan birga, raqamli risklarni baholash tizimlarini ishlab chiqish va sun'iy intellekt yordamida xavf tahlillarini avtomatlashtirish lozim.

### **Xulosa va takliflar.**

Umuman olganda, tijorat banklarining investitsion faoliyatini takomillashtirish strategik rejalashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvni talab qiladi. Diversifikatsiyalash, moliyaviy vositalarni kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik va risk menejmentini mustahkamlash orqali banklar nafaqat o'z daromadlilagini oshirishlari, balki iqtisodiy o'sishga ham katta hissa qo'shishlari mumkin. Shu bois, tijorat banklari investitsion faoliyatni chuqur o'rganish va yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish orqali kelajakdagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlashlari zarur.

***Adabiyotlar/Литература/Reference:***

- Alrawahdeh, S., & Zyadat, A. (2021). *Commercial Banks' Contribution to Expanded Investment and Credit Facilities in Jordan*. *Journal of Business Review*, 5(2), 45–60.
- Coleman, G. W. (1950). *Lending and Investment Practices of Commercial Banks. Law and Contemporary Problems*, 15(4), 663–681.
- Gande, A. (1997). *Commercial Banks in the Securities Business: A Review*. *Journal of Financial Services Research*, 12(2–3), 123–140.
- Omar, M. (2016). *Separation of Investment Banking and Commercial Banking: A Critical Review*. *SSRN Electronic Journal*.
- Santos, J. C. (1996). *Commercial Banks in the Securities Business: A Review*. *Federal Reserve Bank of Cleveland Working Paper*, 9610.